

Maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlar faoliyati


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar hamda ularning ishtirokchilari soni
- II. MIZ, KSZ, texnopark va klasterlarning asosiy ko'rsatkichlari
- III. MIZ, KSZ, texnopark va klasterlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. AT parki ishtirokchilari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. MIZ va KSZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining faoliyat turlari bo'yicha ulushi
- VI. MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar ishtirokchilari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar hamda ularning ishtirokchilari soni¹

2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, ishtirokchisi mavjud maxsus iqtisodiy zonalar soni 31 ta (keyingi o'rinlarda – MIZ), kichik sanoat zonalar soni 417 ta (keyingi o'rinlarda – KSZ), texnoparklar soni 32 ta hamda klasterlar soni 353 ta (keyingi o'rinlarda – klaster) bo'lib, ularning tarkibidagi korxonalar soni MIZda 1 070 ta, KSZda 3 199 ta, texnoparklarda 3 381 ta va klasterlarda 383 taga yetdi.

MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar ishtirokchilari soni



¹ MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar soni ularning ishtirokchilari bo'lgan hamda loyihasi ishga tushirilgan korxonalar bo'yicha shakllantirilgan.

II. MIZ, KSZ, texnopark va klasterlarning asosiy ko'rsatkichlari

2025- yil yanvar-sentabr oylarida

	O'lchov birligi	MIZ	KSZ	Texnopark	Klaster
Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulot (ish, xizmat)lari hajmi (QQS va aksizsiz)	mlrd so'm	45 151,8	13 402,5	1 695,9	23 918,4
Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi	mlrd so'm	12 176,3	990,9	567,8	3 012,2
O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi	mlrd so'm	98,7	473,9	950,6	16,3
Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (QQS va aksizsiz)	mlrd so'm	2 254,3	794,4	23 032,8	383,4
Hisobot davri oxirida xodimlar soni	kishi	51 864	39 384	51 074	45 981
Hisobot davrida yangi ochilgan ish o'rinlari soni	o'rin	13 724	9 267	18 110	7 438
Hisobot davri oxirida ish o'rinlari soni	o'rin	55 844	44 900	54 676	53 420
Xizmatlar eksporti hajmi	ming AQSH dollari	5 480,5	2 270,9	480 996,5	129,8
Xizmatlar importi hajmi	ming AQSH dollari	14 290,1	2 202,4	167 826,4	558,0
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar (-))	mlrd so'm	2 899,2	399,7	5 772,0	68,0

III. MIZ, KSZ, texnopark va klasterlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari


MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi MIZ tarkibidagi korxonalarda 45 151,8 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 13 402,5 mlrd so'mni, texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 1 695,9 mlrd so'mni va klasterlar tarkibidagi korxonalarda 23 918,4 mlrd so'mni tashkil qildi.

Eng yuqori sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi maxsus iqtisodiy zona tarkibidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, 45 151,8 mlrd so'mni tashkil etdi hamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 42,7 % ga oshgan.

Taqqoslash uchun: 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi MIZ tarkibidagi korxonalarda 31 639,1 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 10 785,5 mlrd so'mni va texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 1 167,4 mlrd so'mni tashkil qilgan.

**MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar
tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Klasterlar tomonidan amaldagi narxlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulot \(ish, xizmat\)lari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)

[KSZ ishtirokchilari tomonidan amaldagi narxlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulot \(ish, xizmat\)lari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)

[Maxsus iqtisodiy zonalar tomonidan amaldagi narxlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulot \(ish, xizmat\)lari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)


[Texnopark ishtirokchilari tomonidan amaldagi narxlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulot \(ish, xizmat\)lari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)

**MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**

O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi MIZ tarkibidagi korxonalarda 98,7 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 473,9 mlrd so'mni, texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 950,6 mlrd so'mni hamda klasterlar tarkibidagi korxonalarda 16,3 mlrd so'mni tashkil qildi.

O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori hajmi texnoparklar tarkibidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, 950,6 mlrd so'mni tashkil etgan hamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,0 borobarga** oshgan.

**MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Klasterlar tomonidan amaldagi narxlarida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)

[KSZ ishtirokchilari tomonidan amaldagi narxlarida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)


[Maxsus iqtisodiy zonalar tomonidan amaldagi narxlarida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)

[Texnopark ishtirokchilari tomonidan amaldagi narxlarida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)

MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi

Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi MIZ tarkibidagi korxonalarda 12 176,3 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 990,9 mlrd so'mni, texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 567,8 mlrd so'mni va klasterlar tarkibidagi korxonalarda 3 012,2 mlrd so'mni tashkil etgan.

MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Klasterlar bo'yicha moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapital investitsiyalari hajmi](#)

[KSZ ishtirokchilari bo'lgan korxonalarni moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapital investitsiyalari hajmi](#)

[MIZ ishtirokchilari bo'lgan korxonalarni moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapital investitsiyalari hajmi](#)


[Texnopark ishtirokchilari bo'lgan korxonalarni moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapital investitsiyalari hajmi](#)

MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarning moliyaviy natijalari

Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar (-))miqdori MIZ tarkibidagi korxonalarda 2 899,2 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 399,7 mlrd so'mni, texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 5 772,0 mlrd so'mni va klasterlar tarkibidagi korxonalarda 68,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar (-)) miqdori MIZ tarkibidagi korxonalarda 1 402,2 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 314,7 mlrd so'mni, texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 3 429,6 mlrd so'mni klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarda -426,0 mlrd so'mni tashkil etgan.

MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarning moliyaviy natijalari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Klasterlar bo'yicha foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi \(zarari\)](#)

[KSZ ishtirokchilari bo'lgan korxonalarni foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi \(zarari\)](#)

[MIZ ishtirokchilari bo'lgan korxonalarni foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi \(zarari\)](#)


[Texnopark ishtirokchilari bo'lgan korxonalarni foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi \(zarari\)](#)

MIZ, KSZ, texnoparklar va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarning debitor va kreditor qarzdorligi

2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, debitor qarzdorlik miqdori MIZ tarkibidagi korxonalarda 22 500,8 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 2 591,8 mlrd so'mni, texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 4 640,6 mlrd so'mni va klasterlar tarkibidagi korxonalarda 4 820,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

Kreditor qarzdorlik miqdori MIZ tarkibidagi korxonalarda 29 156,2 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 3 246,0 mlrd so'mni, texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 5 036,7 mlrd so'mni va klasterlar tarkibidagi korxonalarda 6 511,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarning moliyaviy natijalari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Klasterlar bo'yicha hisobot davri oxiriga debitor qarzlari](#)

[KSZ ishtirokchilari bo'lgan korxonalarning hisobot davri oxiriga debitor qarzlari](#)

[MIZ ishtirokchilari bo'lgan korxonalarning hisobot davri oxiriga debitor qarzlari](#)

[Texnopark ishtirokchilari bo'lgan korxonalarning hisobot davri oxiriga debitor qarzlari](#)

[Klasterlar bo'yicha hisobot davri oxiriga kreditor qarzlari](#)

[KSZ ishtirokchilari bo'lgan korxonalarning hisobot davri oxiriga kreditor qarzlari](#)

[MIZ ishtirokchilari bo'lgan korxonalarning hisobot davri oxiriga kreditor qarzlari](#)

[Texnopark ishtirokchilari bo'lgan korxonalarning hisobot davri oxiriga kreditor qarzlari](#)

MIZ, KSZ, texnoparklar va klasterlar bo'yicha respublikadan tashqari (eksport)ga yuklab jo'natilgan sanoat mahsulot (tovar va xizmat)lari hajmi

Respublikadan tashqari (eksport)ga yuklab jo'natilgan sanoat mahsulot (tovar va xizmat)lari hajmi MIZ tarkibidagi korxonalarda 7 160,5 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 3 568,2 mlrd so'mni, texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 217,6 mlrd so'mni va klasterlar tarkibidagi korxonalarda 2 959,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

IV. AT parki ishtirokchilari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2025-yilning yanvar-sentabrida, AT parki ishtirokchilarining xizmatlar eksporti hajmi 480,9 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan 180,8 mln AQSH dollariga ko'paygan.

2025- yilning yanvar-sentabrida, AT parki ishtirokchilari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 21 870,1 mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 8 867,2 mlrd so'mga oshgan.

2025- yilning yanvar-sentabrida, AT parki ishtirokchilari bo'yicha moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 369,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan 144,1 mlrd so'mga oshgan.

AT parki ishtirokchilarining asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2024-yil yanvar-sentabr oylarida	2025-yil yanvar-sentabr oylarida
Xizmatlar eksporti hajmi	mln AQSH dollari	300,1	480,9
Xizmatlar importi hajmi	mln AQSH dollari	83,2	166,4
Ko'rsatilgan bozor xizmatlari (QQS va aksizsiz) hajmi	mlrd so'm	13 002,9	21 870,1
Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi	mlrd so'm	225,7	369,8
Hisobot davri oxirida ish o'rinlari soni	o'rin	33 903	46 503

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[AT parki ishtirokchilarining xizmatlar eksporti hajmi](#)


[AT parki ishtirokchilarining xizmatlar importi hajmi](#)

[AT parki ishtirokchilarida ishlab chiqarilgan \(ko'rsatilgan\) xizmatlar \(QQS va aksizsiz\) hajmi](#)


[AT parki ishtirokchilari bo'yicha moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan
asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi](#)

V. MIZ va KSZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar(ish, xizmat)lar hajmining faoliyat turlari bo'yicha ulushi

MIZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot
(ish, xizmat)lar hajmining faoliyat turlari bo'yicha ulushi



KSZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot
(ish, xizmat)lar hajmining faoliyat turlari bo'yicha ulushi



VI. MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar ishtirokchilari statistikasi
bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Maxsus iqtisodiy zona – tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan hudud.

Kichik sanoat zonasi – aniq yer uchastkasini o'z ichiga olgan hudud bo'lib, ba'zi hollarda – muhandislik-texnik kommunikatsiyalar bilan ta'minlangan ishlab chiqarish maydonlari.

Texnopark – o'zaro, davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qiluvchi, tadbirkorlik, investitsiya faoliyatini va ilmiy faoliyatni yuritish maqsadida zamonaviy texnologik va tashkiliy muhitni shakllantiruvchi ilm-fan va ta'limning tijorat va notijorat tashkilotlari, moliya institutlari va tadbirkorlarning integratsiyalashuvi shakli.

Klaster – meva-sabzavot va qishloq xo'jaligi resurslarini yetishtirish va chuqur qayta ishlash, chorvachilik, baliqchilik va boshqa komplekslarni yaratish, raqobatbardosh yuqori texnologiyali va eksportbop to'qimachilik, oziq-ovqat va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish shakli.

